

## Aholi Daromadlarining O'Zgarishi Va Uning Iste'mol Savatchasi Tarkibiga Ta'siri

Omonkulova Dildora Mannon qizi

Qarshi davlat texnika universiteti

"Iqtisodiyot" ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

[dildoraomonkulova4@gmail.com](mailto:dildoraomonkulova4@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aholi daromadlarining o'zgarishi iste'mol savatchasi tarkibiga ta'sir ko'rsatishining iqtisodiy qonuniyatlari tahlil qilingan. Iste'molchi xulq-atvorini o'rganishda nemis iqtisodchisi Ernst Engelning qarashlari va uning qonuni amaliy misollar bilan yoritilgan. Tahlil asosida aholi farovonligini oshirish, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Aholi daromadlari, iste'mol savatchasi, Engel qonuni, mikroiqtisodiy tahlil, iste'molchi xulq-atvori.

## Изменение Доходов Населения И Его Влияние На Структуру Потребительской Корзины

Омонкулова Дилдора Маннон кизи

Каршинский государственный технический университет

Студент 2 курса по специальности «Экономика»

[dildoraomonkulova4@gmail.com](mailto:dildoraomonkulova4@gmail.com)

**Аннотация:** В статье анализируются экономические закономерности влияния изменения доходов населения на структуру потребительской корзины. Взгляды немецкого экономиста Эрнста Энгеля и его закон в изучении потребительского поведения освещены на практических примерах. На основе анализа разработаны практические предложения по повышению благосостояния населения и устранению существующих проблем.

**Ключевые слова:** доходы населения, потребительская корзина, закон Энгеля, микроэкономический анализ, поведение потребителей.

## Changes In Household Income And Its Impact On Consumption Basket

Omonkulova Dildora Mannon qizi

Karshi state technical university

2nd year student of the "Economics" program

[dildoraomonkulova4@gmail.com](mailto:dildoraomonkulova4@gmail.com)

**Abstract:** This article analyzes the economic laws of how changes in household income affect the composition of the consumer basket. The views of the German economist Ernst Engel and his law are presented in the study of consumer behavior with practical examples. Based on the analysis, practical proposals have been developed to improve the well-being of the population and eliminate existing problems.

**Keywords:** Household income, consumption basket, Engel's law, microeconomic analysis, consumer behavior.


**KIRISH.** Bugungi kunda iste'mol savatchasi iqtisodiyotda muhim ko'rsatkich sifatida qaraladi. Jahon iqtisodiyotida aholi daromadlarining o'zgarishi iste'mol savatchasi tarkibiga katta ta'sir etib kelmoqda. Buni birgina O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, so'nggi



yillarda aholi daromadlarining tarkibiy o'zgarishi iste'mol savatchasining sifat jihatdan yaxshi tomonga o'zgarayotganini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-sonli Farmoniga ko'ra, mamlakatimizda kambag'allik darajasini 2025-yil yakuniga qadar 6 foizga tushirish strategik vazifa qilib belgilangan. Ushbu maqsadli ko'rsatkich aholi daromadlarining o'sishiga va natijada iste'mol savatchasi tarkibining ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi [1].

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.** Aholi daromadlari va iste'mol savatchasi tarkibi o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiyot fanida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala klassik va zamonaviy iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ayniqsa iste'molchi xulq-atvorini tushuntirishda muhim nazariy asoslar yaratilgan.

XIX asrda real daromad oshishi bilan birlamchi ehtiyoj ne'matlariga talab qisqarib borib, ikkilamchi ehtiyoj ne'matlariga talab oshib borishi isbotlangan. Mazkur yo'nalishda dastlabki ilmiy qarashlar nemis iqtisodchisi Ernst Engel tomonidan ilgari surilgan. Nemis olimi Ernst Engel (1821-1896) birinchi bo'lib daromad o'zgarishining iste'mol tarkibiga ta'sirini tadqiq qilgan. Tovarlar tarkibining daromadga nisbatan o'zgarishini ifodalovchi chiziqlar, Engel egri chiziqlari deyiladi.(7.2-rasm)



7.2-rasm. Engel egri chiziqlari

Iste'molchi ehtiyoji birinchi navbatda kundalik zaruriy ehtiyoj tovarlari (Q1), ikkinchi navbatda standart sifatli sanoat mahsulotlari (Q2) va nihoyat, keyinchalik oliy kategoriyali tovarlar (Q3) bilan to'yinadi. Yana shu holat aniqlanganki, oliy sifatli tovarlar va xizmatlarga talab oshganda ham, kundalik hayotda foydalaniladigan standart sifatli sanoat mahsulotlariga talabning kuchayishi qonuniyati kuzatilgan [2].

Uning **Engel qonuniga** ko'ra, aholi daromadlari oshgani sari oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan xarajatlar ulushi kamayib boradi, ammo mutlaq miqdorda o'sish kuzatiladi. Shu bilan birga, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarga bo'lgan talab nisbatan tezroq ortadi. Bu qonun iste'mol savatchasi tarkibining daromad darajasiga bog'liq ravishda o'zgarishini tushuntiradi va bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan.

Keyinchalik iste'mol nazariyasini rivojlantirishda John Maynard Keynes katta hissa qo'shgan. Uning "asosiy psixologik qonuni"ga ko'ra, daromad ortishi bilan iste'mol ham ortadi, biroq iste'molning o'sish sur'ati daromad o'sishidan past bo'ladi. Bu esa jamg'arma ulushining ortishiga olib keladi va iste'mol tarkibida sifat jihatidan o'zgarishlar yuz beradi.

Mikroiqtisodiy yondashuv doirasida Alfred Marshall va boshqa neoklassik iqtisodchilar tomonidan iste'molchi xulq-atvori, foydalilik nazariyasi hamda talab funksiyalari



chuqur tahlil qilingan. Ular iste'mol tanlovi daromad va narxlar o'zgarishiga qanday bog'liqligini asoslab berganlar.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda esa iste'mol savatchasi tarkibining diversifikatsiyasi, ya'ni daromad oshgani sari xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va turizm kabi yo'nalishlarga xarajatlarning ortishi alohida ta'kidlanadi. Bu borada World Bank va International Monetary Fund hisobotlarida rivojlanayotgan davlatlarda daromadlar o'sishi bilan iste'mol strukturasi sezilarli ravishda o'zgarishi qayd etilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham mazkur muammo keng o'rganilgan. Xususan, aholi daromadlari dinamikasi, kambag'allik darajasi va iste'mol savatchasi tarkibining o'zgarishi bo'yicha milliy tadqiqotlarda daromadlar o'sishi bilan xizmatlar ulushi ortib borayotgani, oziq-ovqat xarajatlari ulushi esa nisbatan kamayishi kuzatilayotgani ilmiy asoslangan.

Shu bilan birga, ilmiy manbalarda daromadlar tengsizligi, inflyatsiya va hududlararo farqlar iste'mol savatchasi tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi alohida qayd etiladi. Bu omillar aholi turli qatlamlarida iste'mol xulq-atvorining farqlanishiga olib keladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi daromadlari va iste'mol savatchasi o'rtasidagi bog'liqlik murakkab iqtisodiy jarayon bo'lib, u nafaqat daromad miqdori, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar, narxlar darajasi va davlat siyosati bilan ham chambarchas bog'liqdir.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Maqolada quyidagi metodologiyadan foydalanilgan:

Tizimli tahlil: Aholi daromadlarining o'zgarishi va iste'mol savatchasi tarkibi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks ravishda o'rganildi.

Statistik va qiyosiy tahlil: O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimidagi aholi daromadlari, real o'sish sur'atlari va kambag'allik darajasiga oid 2021–2025 yillardagi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Grafikali modellashtirish: Daromad va talab miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalashda iqtisodiy nazariyadagi Engel egri chiziq-lari modelidan foydalanildi.

Induktiv va deduktiv xulosa chiqarish: Iste'molchi xulq-atvori nazariyasidagi farazlar (afzal ko'rishning shakllanganligi va tranzitivlik) asosida umumiy qonuniyatlar ishlab chiqildi.

**ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR.** Aholi daromadlari – aholi yoki oila a'zolari tomonidan ma'lum davr ichida olingan yoki ishlab topilgan pul yoki natura shaklidagi mablag'lar yig'indisidir. Aholining talab-ehtiyojlar darajasi va tarkibiy daromadlar va miqdorlariga bevosita bog'liqdir. Iste'mol savati - insonning salomatligini saqlash va uning hayot-faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning minimal to'plamidir. Aslida, iste'mol savati uchta savatga iborat: oziq-ovqat, nooziq-ovqat, xizmat savatchalari. Iste'mol savati kamida 5 yilda bir marta uslubiy tavsiyalar asosida aniqlashtiriladi. Iste'mol savatida oziq-ovqat savati muhim o'rin tutadi [3].

Iste'molchining hatti-harakatini uch bosqichda ko'rib chiqamiz: 1) uning afzal ko'rishini o'rganish; 2) byudjet cheklolari; 3) iste'mol tanlovi. Iste'molchi o'zining o'z didi va ruhiyatiga ko'ra turli xil tovarlar to'plamini ma'qul ko'rishi mumkin. Bunda u tovarlarning ma'lum bir to'plamini boshqa biriga taqqoslab ko'radi. Iste'molchilar hulq-atvori nazariyasini o'rganishda 3ta faraz ilgari suriladi:

1. Afzal ko'rishning shakllanib bo'lganligi. Bu iste'molchilarning tovar va xizmatlarning barcha to'plamlarini turkumlash va bir-biriga taqqoslashlari mumkinligini anglatadi. Biroq, bu afzal ko'rishlar qiymatni e'tiborga olmaydi. Iste'molchi biror bir tovarni afzalroq ko'rishiga qaramay, narxi nisbatan arzon bo'lganini oladi.



2. Afzal ko'rish tranzitivdir, ya'ni tovarlarning A to'plami V to'plamdan, V to'plami S to'plamdan afzalroq bo'lsa, u holda A to'plamning S to'plamdan afzalligi shubhasizdir. Bu faraz afzalliklarning ratsionalligini (o'zaro muvofiqligini) kafolatlaydi.

3. Barcha tovarlar bir xilda yaxshi bo'lib, ularning qiymati e'tiborga olinmasa, iste'molchilar doimo har qanday tovarning ko'proq miqdorini kamroq miqdoridan afzal ko'radilar.

Iste'molchi xatti-harakatini tushunishda byudjetning chegaralanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Byudjet chegaralanganligining tanlovga ta'sirini misol yordamida ko'rib chiqamiz. Talabani stipendiyasi 10000 so'm bo'lib, u bu pulga 2 xil tovar – oziq-ovqat (O) va kiyim (K) sotib olishi mumkin. Bu tovarlar birligi narxini  $R_o$  va  $R_k$  deb belgilasak,

1) ovqatlanish uchun sarflangan pul miqdori

$$(PM_o): PM_o = R_o \times O;$$

2) kiyim uchun sarflangan pul miqdori

$$(PM_k): PM_k = R_k \times K \text{ bo'ladi.}$$

Talaba sotib olgan tovarlarning kombinatsiyasi to'g'ri chiziqda yotadi:

$$(R_o \times O) + (R_k \times K) = S.$$

Agar oziq-ovqat birligining narxi 500 so'm, kiyim birligining narxi esa 1000 so'm bo'lsa, talaba xarid qilishi mumkin bo'lgan tovarlar kombinatsiyasini quyidagi 1-jadval orqali ifodalash mumkin:

1-Jadval


Talaba xarid qilishi mumkin bo'lgan tovarlar kombinatsiyasi

Tovarlar to'plami	Kiyim(K)	Oziq-ovqat(O)
A	10	0
B	8	4
V	6	8
G	4	12
D	2	16
E	0	20

Jadval ma'lumotlaridan quyidagi tenglamani hosil qilish mumkin:

$$1000K + 500O = 10000.$$

Shuningdek, byudjet chizig'ini grafikda tasvirlaymiz. Tovarlarining birini xarid qilish orqali boshqasidan voz kechish nisbati barcha nuqtada bir xil bo'lgani sababli to'g'ri chiziq hosil bo'ladi.



1-rasm. Byudjet chizig'ining grafikdagi ifodalanishi



A to'plamdan ye to'plam tomon chiziq bo'ylab siljish yuz berganda talaba kiyimga ozroq, oziq-ovqatga ko'proq pul sarflaydi. Bir tovarni xarid qilish uchun boshqa tovardan voz kechish chog'idagi nisbat  $500 \text{ so'm}/1000 \text{ so'm} = 1/2$  ga teng [4].

**2-jadval.**

**Kambag'allik va daromadlar statistikasi (2025-yil)**

Hududlar:	Aholi jon boshiga umumiy daromatlari o'sish sur'ati	Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar o'sish sur'ati	Kambag'allik darajasi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	113	20656	18974,8	103,8	6,6
Andijon viloyati	109,1	26275,9	24237,5	100,6	6,1
Buxoro viloyati	117,6	35176,2	32322,2	108	6
Jizzax viloyati	113,8	22907,4	21128,4	105	5,8
Qashqadaryo viloyati	118,1	23517,5	21605,4	108,5	6,5
Navoiy viloyati	116,1	44694,2	41238,4	107,1	4,2
Namangan viloyati	114,8	21304,6	19624,8	105,7	5,5
Samarqand viloyati	115,2	24471	22556	106,2	6,1
Surxondaryo viloyati	116,2	22572,2	20697	106,5	6,1
Sirdaryo viloyati	115,6	23339,5	21530,9	106,7	6,2
Toshkent viloyati	113,5	29830,9	27430,7	104,4	5,3
Farg'ona viloyati	125,5	24582,7	22478,7	114,8	5,7
Xorazm viloyati	118,2	31136	28636,1	108,7	6,7
Toshkent shahri	118,6	73910,5	67597	108,5	3,5


**3-jadval**

**O'zbekistonda aholi daromadlari bilan bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar**

Ko'rsatkichlar:	2021	2022	2023	2024	2025
Aholi umumiy daromadlari hajmi	550747	667419	779086	954252	1134253
Aholi umumiy daromadlarining o'sish sur'ati	124,8	121,2	116,7	122,5	118,9
Aholi real umumiy daromadlari o'sish sur'ati	496930	598904	708453	870350	1042416
Aholi daromadlarining notekis taqsimlanishi (Jini koeffitsienti)	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3

**Xulosa Va Takliflar.**

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aholi daromadlarining o'zgarishi iste'mol savatchasi tarkibiga bevosita va sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, daromadlar oshishi



natijasida oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadigan xarajatlar ulushi kamayib, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarga bo'lgan talab ortib boradi. Bu holat iqtisodiy nazariyada Engel qonuni orqali izohlanadi va amaliy ma'lumotlar bilan ham tasdiqlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda aholi daromadlarining o'sishi iste'mol tarkibining sifat jihatdan yaxshilanishiga olib kelgani kuzatildi. Statistik tahlillar natijasida hududlar kesimida daromadlar o'sishi bilan birga kambag'allik darajasining pasayish tendensiyasi mavjudligi aniqlandi. Biroq daromadlar notekis taqsimlanishi, inflyatsiya darajasi va hududiy tafovutlar iste'mol savatchasi tarkibiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida saqlanib qolmoqda.

Umuman olganda, aholi farovonligini oshirish nafaqat daromad miqdorini ko'paytirish, balki uning tarkibiy sifatini yaxshilash, iste'mol imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. **Aholi daromadlarini barqaror oshirish siyosatini kuchaytirish** – ayniqsa kam daromadli qatlamlar uchun ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilish zarur.

2. **Iste'mol savatchasini muntazam ravishda yangilab borish** – zamonaviy ehtiyojlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamli xizmatlar)ni hisobga olgan holda uning tarkibini takomillashtirish lozim.

3. **Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish** – past daromadli hududlarga investitsiyalarni ko'paytirish va infratuzilmani rivojlantirish orqali iste'mol imkoniyatlarini kengaytirish kerak.

4. **Inflyatsiyani jilovlash va narxlar barqarorligini ta'minlash** – ayniqsa asosiy iste'mol tovarlari bo'yicha narxlarning keskin oshib ketishini oldini olish muhim hisoblanadi.

5. **Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish** – nafaqa, subsidiya va ijtimoiy yordam mexanizmlarini yanada manzilli qilish orqali aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash zarur.

6. **Moliyaviy savodxonlikni oshirish** – aholi o'rtasida daromadlarni to'g'ri taqsimlash, jamg'arma qilish va samarali iste'mol madaniyatini shakllantirish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-sonli Farmoni. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. B.T. Salimov, M.S. Yusupov, B.B. Salimov. Mikroiqtisodiyot. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2019, - 120 bet
3. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakieva I.A., «Mehnat iqtisodiyoti» (Darslik) – T.: TDIU, 2010. 142-bet, 149-bet.
4. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, B.D.Hajiev. Iqtisodiyot nazariyasi-2. O'quv qo'llanma:-T.:TDIU, 2009. 65-bet, 68-69-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. [Elektron resurs]. URL: <https://stat.uz>